
BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA IJTIMOIIY INFRATUZILMA TIZIMI

Mahkamov Baxtiyor Ibrohimovich

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. *Ijtimoiy davlatni barpo etish ko‘p jihatdan ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotganligi bois, mazkur maqolada ijtimoiy infratuzilmaning o‘rnini yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, ijtimoiy davlat, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, infratuzilma, ijtimoiy infratuzilma, iqtisodiy o‘sish, barqaror rivojlanish.*

SOCIAL INFRASTRUCTURE SYSTEM IN ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Makhkamov Bakhtiyor Ibragimovich

Student of the Banking and Finance Academy

Annotation. *The construction of a social state is largely determined by the level of development of the social infrastructure. Since special attention is paid to the development of social infrastructure at the current stage of reforms in Uzbekistan, this article attempts to highlight the role of social infrastructure.*

Keywords: *national economy, social state, modernization of the economy, infrastructure, social infrastructure, economic growth, sustainable development.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida global beqarorlik sharoitida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarining samarali faoliyati uchun

zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida qator tizimli ishlar olib borilmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, "...bugungi kunda inson kapitali tanqisligining yomonlashuv tendensiyasi kuzatilmoqda, bu birinchi navbatda texnologiya sohasida jadal o'sib borayotgan global o'zgarishlar, siyosiy mojarolar, pandemiya tarqalishi, shuningdek ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, shu jumladan, bu borada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining pastligidir.

Tegishli qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirilmasa, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi vaziyatning yomonlashishi iqtisodiyotdagi beqarorlik jarayonlarining kengayishiga, uning farovonligini tiklashga to'sqinlik qiladi". Bundan ko'rinadiki, jahonda va mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari doimo iqtisodiy fanlar diqqat markazida bo'lgan.

Iqtisodiyot fanining mashhur namoyondalari A.Smit, A.Pigu, K.R. Makkonell, S.L. Bryu, S. Fisher, M.Spens, R.Rajnoha, J. Vahancik va boshqalar tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari o'z ifodasini topgan.

Barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishi va uni tartibga solish tadqiqotlari MDH olimlari L.A.Strijkova, A.Illarionov, Ye.Balatskiy, S.Gubanov, N.A.Samarskaya, R.T.Burganov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar asosida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlanishi, uni tartibga solish, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar singari muammolarning umumnazariy jihatlari tadqiqotiga A.Bekmurodov, N.To'xliyev, N.Maxmudov, X.Abulqosimov, B.Berkinov, A.Vaxabov, T.Shodiyev, Sh.Shodmonov, U.Madrahimov, M.Turdimuratov va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishini takomillashtirishning nazariy va konseptual

yondashuvlar yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi, ushdu muammolarni nazariy, uslubiy, amaliy jihatdan o‘rganishni talab etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida tizimli tahlil, statistik -iqtisodiy va iqtisodiy-matematik modellash, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash asosida ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishi iqtisodiy jihatdan barqaror o‘shish jamiyat taraqqiyoti yo‘lini, uning rivojlanish darajasini belgilaydi. Iqtisodiy o‘shish, birinchi navbatda, tovar va xizmatlar miqdorining o‘shishi va o‘zgarishida o‘z ifodasini topadi. Keng ma’noda esa, jamiyatda iqtisodiy o‘shish natijasida takror ishlab chiqarish ortadi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi. Eng asosiysi iqtisodiy o‘shish, avvalo, aholining turmush tarzini yaxshilash uchun zarurdir, chunki bunga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan islohotlar jamiyatining barcha jabhalarini qamrab oladi aholi turmush sifati moddiy jihatdan yaxshilanadi va farovonligi ortadi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida quyidagi asosiy g‘oyalarga ustuvor darajada e’tibor qaratilgan [1]:

- barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

Bundan tashqari mamlakatimizda iqtisodiy jihatdan barqaror o‘shish uning rivojlanish darajasini belgilovchi tizimni takomillashtirish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan, jumladan “...iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘shish hisobiga erishiladi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘shishning poydevorini yaratishdan iborat. Shularni inobatga olib, keyingi yilda quyidagi yo‘nalishlarda keng qamrovli ishlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, kambag‘allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandart usullarni joriy etamiz. Ikkinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish. Uchinchidan, tovar va moliya bozorlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun teng imkoniyatlar yaratish zarur. To‘rtinchidan, iqtisodiy o‘shishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi. Beshinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir”.

Iqtisodiy o‘shish barqaror rivojlanishning alohida tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatda ma’lum yillar davomida (odatda besh yil) ijobiy va o‘zaro mutanosib o‘shish dinamikasidan vujudga keladigan iqtisodiy o‘shishdir. Har bir mamlakat iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga intiladi. Mamlakat tabiiy resurslar miqdori va sifati, asosiy kapital hajmi, unga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi, texnologiyalar, tadbirkorlik qobiliyati va boshqa bir qator vositalar iqtisodiy o‘shish, milliy mahsulot hajmi va daromad darjasining oshishi, natijada aholining farovonligiga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘shish qanchalik jadal rivojlangan bo‘lsa milliy iqtisodiyot oldida turgan vazifalarni hal qilish shuncha katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shu nuqtai-nazardan barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganib borish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bu borada nufuzli xalqaro tashkilotlar ko‘rsatib berganidek, **“Kambag‘allik** insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laonli ishtirok etish uchun to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minlash imkoniyatlari etishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo‘ladi” [2].

Adam Smit bozor samarali ta’minlay olmasligi mumkin bo‘lgan ba’zi jamoat tovarlarini, masalan, mudofaa, adolat va yo‘llar va ko‘priklar kabi jamoat infratuzilmasini ta’minlashda davlat rolining muhimligini ta’kidladi. U bularni jamiyat farovonligi va faoliyati uchun zarur deb hisoblagan. Smit ko‘pincha laissez-faire iqtisodining tarafdori sifatida qaralsa-da, u tengsizlikning oldini olish va

barqaror jamiyatni qo‘llab-quvvatlash uchun davlatning ma’lum darajada aralashuvi zarur deb hisoblab, xalq ta’limi va farovonlikning muhimligini tan oldi [3].

Zamonaviy iqtisodiy nazariyaning rivojlanishidagi asosiy shaxs Pol Samuelson iqtisodiyotni boshqarishda hukumatning faolroq rolini ilgari surdi. Uning fikricha, hukumat aralashuvi bozordagi muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etishga yordam beradi va sog‘liqni saqlash, ta’lim va infratuzilma kabi muhim ijtimoiy mahsulotlar bilan ta’minlaydi.

Keynschi iqtisodchi Samuelson, ayniqsa tanazzul davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun davlat xarajatlarining muhimligini ta’kidladi. Uning qarashlari ijtimoiy infratuzilmaga investitsiyalar iqtisodiy o‘‘sishni rag‘batlantirishi va turmush darajasini oshirishi mumkinligi haqidagi g‘oyani qo‘llab-quvvatladi.

Samuelson yaxshi ishlab chiqilgan ijtimoiy siyosat va infratuzilma umumiy ijtimoiy farovonlikni oshirishi mumkinligini ta’kidlab, farovonlik iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shdi. U nomutanosibliklarni tuzatish va resurslarning adolatli taqsimlanishini ta’minlash uchun hukumat aralashuvini zarur deb bildi. [4].

Iqtisodiy erkinlik: Smitning ta’kidlashicha, qonunlar va infratuzilmaning asosiy doirasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan iqtisodiy erkinlik bozorlarning samarali ishlashiga imkon beradi. U "ko‘rinmas qo‘l" tarafdori edi, bu yerda o‘z manfaatlarini ko‘zlagan shaxslar tabiiy ravishda jamiyat farovonligiga hissa qo‘shadilar.

Mahalliy olimlardan A.Vahobov infratuzilmaning iqtisodiy o‘‘sish va taraqqiyotdagi o‘rni haqida ko‘p yozgan. U ijtimoiy infratuzilmaga davlat sarmoyasining ahamiyati va davlat-xususiy sheriklikning afzalliklarini ta’kidlaydi [5].

A.O‘lmasov va A.Vaxobovlarning ta’kidlashicha hududlarni rivojlantirish va mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishda ijtimoiy infratuzilmaning roliga e’tibor qaratdi. Uning ishi ta’lim, sog‘liqni saqlash va transportni yaxshilash O‘zbekistonning turli mintaqalarida mutanosib rivojlanishga qanday yordam berishi mumkinligini ta’kidlaydi.[6] Ijtimoiy infratuzilmaning hayot sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ta’sirini Nabixujaev A., Sherov Yu., Sultonov P. Kabi olimlarimiz tadqiq qilishgan. Ularning tadqiqotlari ishchi kuchi malakasini oshirish va umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirish uchun sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga sarmoya kiritish muhimligini ta’kidlaydilar.[7]

Eng asosiysi, aholi turmush darajasi moddiy jihatdan yaxshilanadi va farovonligi ortadi. Jamiyat rivojlanib borishi bilan iqtisodiy o‘shish masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan nazariyalar va qarashlar ham o‘zgarib, rivojlanib bordi. Shuningdek, ularni o‘rganish ob’ektlari ham tadrijiy tarzda o‘zgarib borganligini ta’kidlash lozim. Dastlabki qarashlarda faqat uning miqdoriy jihatlari va ular bilan bog‘liq omillar tadqiq etilgan bo‘lsa, keyinroq, ularning samaradorligiga e’tibor qaratildi va bu cheklangan resurslardan samarali foydalanishni o‘z ichiga olganligi bilan asoslanadi.

Bevosita mazkur qarashlarning davomi sifatida iqtisodiy lug‘atlarda “Barqaror iqtisodiy o‘shish tushunchasi milliy iqtisodiyotning shunday bir holatini ifodalashi kerakki, unda salbiy yoki nolga teng bo‘lishi mumkin bo‘lgan real o‘zgaruvchan mezon va ko‘rsatkichlar uzluksiz mutanosib sur’atda o‘shishi lozim” deb ko‘rsatilgan.

Ijtimoiy infratuzilma tushunchasi jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondiradigan va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladigan infratuzilma turlari majmuasini anglatadi. U turli xil xizmatlar va inshootlarni o‘z ichiga oladi, ular jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy infratuzilmani kategoriyalar sifatida quyidagi asosiy bo‘limlarga ajratish mumkin:

Ta’lim infratuzilmasi maktablar, kollejlari, universitetlar va boshqa ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi. Bu muassasalar aholiga sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatib, ularning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim infratuzilmasining yana bir qismi kutubxonalar va o‘quv markazlaridir. Ular jamiyatning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Sog‘liqni saqlash infratuzilmasi shifoxonalar, poliklinikalar, dorixonalar va sog‘liqni saqlash markazlarini o‘z ichiga oladi. Bu infratuzilma aholining jismoniy va ruhiy salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Sog‘liqni saqlash infratuzilmasi sanitariya va gigiena tizimlarini ham qamrab oladi, bu esa kasalliklar tarqalishini oldini olish va umumiy sog‘liqni saqlash darajasini oshirish uchun zarurdir.

Transport infratuzilmasi avtotransport yo‘llari, temir yo‘llar, aeroportlar va dengiz portlarini o‘z ichiga oladi. Bu infratuzilma odamlar va tovarlarni tashish imkoniyatlarini yaxshilaydi, iqtisodiy faoliyatni rivojlantiradi va hududlararo integratsiyani kuchaytiradi.

Aloqa infratuzilmasi telefon, internet, mobil aloqa va boshqa telekommunikatsiya xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Bu soha zamonaviy axborot va aloqa texnologiyalari orqali jamiyatning tezkor axborot almashish va muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Madaniy infratuzilma madaniyat markazlari, teatrlar, kinoteatrlar va muzeylarni o‘z ichiga oladi. Ular jamiyatning madaniy boyligini saqlash, rivojlantirish va ommaga etkazish uchun xizmat qiladi.

Sport zallari, stadionlar, bog‘lar va dam olish zonalar ham madaniyat va dam olish infratuzilmasining muhim qismidir. Bu joylar aholiga sog‘lom turmush tarzini olib borishga va bo‘sh vaqtni samarali o‘tkazishga imkon beradi.

Uy-joy infratuzilmasi aholining xavfsiz va qulay yashash sharoitlarini ta‘minlash uchun zarur. Bu sohada yangi uy-joylarning qurilishi, mavjud binolarning rekonstruksiyasi va modernizatsiyasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Suv ta‘minoti, elektr energiyasi, kanalizatsiya va chiqindilarni qayta ishlash xizmatlari bu kategoriyaga kiradi. Bu xizmatlar aholi salomatligini saqlash va yashash sharoitlarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy infratuzilma kategoriyalari, shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan barcha sohalarni qamrab oladi. O‘zbek olimlarining ijtimoiy infratuzilma rivojlanishiga qaratilgan tadqiqotlari mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.[8]

Ijtimoiy infratuzilma kategoriyasiga berilgan turli xil ta‘riflar, nazariy qarashlarni ilmiy-nazariy tahlil etgan holda, uning o‘ziga xos jihatlarini e‘tiborga olib quyidagi mualliflik yondashuvlarini ilgari suramiz: barqaror iqtisodiy o‘sish yalpi ichki mahsulotning qay darajada o‘rishini ifodalab, uning samaradorligi iqtisodiy o‘zgarishlarga erishishning ko‘rsatkichlarini ifodalab, yalpi ichki mahsulot o‘rishining xarajatlar o‘rishiga nisbati orqali aniqlanadi. Iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy infratuzilmaning o‘zaro mutanosibligi esa ushbu munosabatlarning sub’ektlari bo‘lgan iqtisodiy o‘zgarishlarga erishish natijasida ijtimoiy infratuzilma mutanosibligini tartibga solishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq munosabatlardir.

Iqtisodiy o‘sish zamiridagi zamonaviy iqtisodiy nazariyada odatda tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish hajmining real ko‘payib ketishi va qisqa

muddatli ravnaqi emas, balki uzoq muddatli vaqt oralig‘idagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish real hajmi tabiiy darajasining uzoq muddatli o‘sishi tushuniladi. Demak, iqtisodiy o‘shish bu real milliy mahsulot mutloq hajmining, aholi jon boshi va iqtisodiy resurs birligi hisobiga nisbiy miqdorining barqaror o‘shib, tarkibi takomillashib va sifati yaxshilanib borishidir.

Ijtimoiy infratuzilma jamiyatning umumiy rivojlanishi va farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim sohalardan biridir. Bu tushuncha turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinishi mumkin, chunki uning o‘rni va ahamiyati har bir sohada har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

Iqtisodchilar uchun ijtimoiy infratuzilma iqtisodiy o‘shishning asosi sifatida qaraladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va boshqa infratuzilma elementlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi. Masalan, sifatli ta’lim mehnat resurslarini yanada malakali qiladi, bu esa ish unumdorligini oshiradi. Sog‘liqni saqlash infratuzilmasi esa sog‘lom ishchi kuchini ta’minlaydi, bu esa iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

Ijtimoiy infratuzilma sifatining yaxshilanishi xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Barqaror infratuzilma investitsorlar uchun qulay biznes muhitini yaratadi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, infratuzilma aholining turmush darajasini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining keng qamrovliligi va yuqori sifati jamiyatning umumiy farovonligini oshiradi. Bu infratuzilma aholiga yanada sifatli hayot tarzini ta’minlaydi va ularning ijtimoiy xavfsizligini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy infratuzilma teng imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasida adolatli taqsimot va sifatni oshirish orqali ijtimoiy tengsizliklar kamaytirilishi mumkin. Bu esa jamiyatda adolat va barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Shaharsozlik nuqtai nazardan, ijtimoiy infratuzilma, shu jumladan transport, uy-joy, va kommunal xizmatlar, shaharning umumiy rivojlanishi va fuqarolar uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shahar infratuzilmasining rivojlanishi shahar aholisining sifatli hayot tarzini ta’minlaydi va iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi.

Hududiy rivojlanish nuqtai nazardan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish qishloq va shahar hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu jarayon orqali aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish va mintaqalararo tenglikni ta’minlash mumkin.

Ekologik nuqtai nazardan, ijtimoiy infratuzilma barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yashil infratuzilma loyihalari, masalan, ekologik toza transport tizimlari, energiya samaradorligi va chiqindilarni qayta ishlash tizimlari tabiatga zarar etkazmasdan infratuzilmani rivojlantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy infratuzilma iqlim o‘zgarishlariga moslashish jarayonlarida ham muhim hisoblanadi. Shahar va qishloq joylarida barqaror infratuzilma echimlari (masalan, suv resurslarini boshqarish tizimlari, toshqinlardan himoyalaniş choralari) tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishlari ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

Ijtimoiy infratuzilma har xil nuqtai nazarlardan tahlil qilinishi mumkin bo‘lgan kompleks tushuncha bo‘lib, uning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki jamiyatning umumiy farovonligi va barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ekologik yondashuvlar orqali ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim rol o‘ynaydi. [9].

Shu o‘rinda iqtisodiy o‘shishga bog‘liq tushuncha bo‘lgan ijtimoiy infratuzilmaning mohiyati, ahamiyatini kengroq o‘rganamiz. “Infratuzilma” tushunchasining dastlabki talqini G‘arbiy Evropa, xususan Frantsiyaga (1875 y.) borib taqaladi, keyinroq esa bu ingliz tilida (1887 y.) ham foydalanishga kirib kelgan. Infratuzilma suzining lug‘aviy ma’nosi lotin tilida “infra” - quyi, —pastki va frantsuz tilida structure - tuzilma degan ma’nolarni anglatadi.

Infratuzilma xizmat ko‘rsatishini tashkil etish uchun mablag‘lar sarflanadi. Shuning uchun ularni hisoblash mumkin va ular yalpi milliy mahsulot tarkibiga kiritiladi. Infratuzilmani yaratuvchi mehnat ham unumli hisoblanadi. Infratuzilmaning samaradorligi ko‘rsatilgan xizmatlarning sarf-harajatlarga nisbati orqali aniqlanadi.

Iqtisodiyotda infratuzilma taraqqiyoti ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy shakli bo‘lib kelgan natural xo‘jalikdan tovar xo‘jaligi yuzaga kelgan davrgacha bo‘lgan ulkan davr mobaynida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tgan. Bu bosqichlar jamiyatda

mehnat taqsimotlari bilan bog‘liq davriy jarayonlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yirik mehnat taqsimotlari natijasida jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va vositalari joylashuvi va ixtisosligida o‘zgarishlar yuzaga kelib, dexqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib borishi, ishlab chiqarishning qishloq va shahar qismlarining yuzaga kelishi, sanoat ishlab chiqarishi va savdoning yuzaga kelishi natijasida jamiyatda faoliyat yurituvchi barcha ishlab chiqaruvchi va xom ashyo etkazib beruvchi korxonalarga xizmat ko‘rsatish sohasining ham rivojlanib borishi zaruratini keltirib chiqardi. Bugungi kunda infratuzilma xizmat ko‘rsatish yo‘nalish vazifasiga ko‘ra ikkita yirik guruhga bo‘linadi:

1. Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma –aloqa, ulgurja savdo, jarayonlarga servis xizmatlarini ko‘rsatuvchi texnik xizmatlar va hakoza.

2. Ijtimoiy infratuzilma – jamiyat aholisining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiluvchi xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining yig‘indisi. Bular jumlasiga sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, uy-joy xo‘jaligi va ijtimoiy ta’minot xizmatlari va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Infratuzilma iqtisodiyot belgilab bergan vazifasiga ko‘ra yo‘nalishlarga va uning tarkibiy elementlariga bo‘linadi.

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuksalib borishi, infratuzilma vazifalarining mukammallashib borib, tobora kengayib borish zaruratini keltirib chiqaradi. Lekin, ishlab chiqarish infratuzilmasi mahsulot ishlab chiqarmasligi va aksincha ishlab chiqarishga sharoit yaratib beruvchi ikkinchi darajali yoki yordamchi tizim sohasi sifatida qaralmasligi lozim. Chunki, infratuzilma rivojlangan taqdirdagina jamiyat hayotining asosi bo‘lgan ishlab chiqarishda uzviylik va o‘sinh ta’minlanadi. Aynan shuning uchun ham bozor munosabatlariga asoslangan har qanday jamiyat infratuzilma ob’ektlari rivojlanishiga e’tiborini qaratishi hayotiy zaruratdir. Ijtimoiy infratuzilma esa bevosita aholiga kafolatlangan daromad va ijtimoiy xizmatlarni olish uchun sharoit yaratish va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishdagi bosh vazifalarimizdan biri ham bozor infratuzilmasining yo‘nalish vazifalariga ko‘ra taqsimlangan va o‘zaro bog‘liqlikda faoliyat yurituvchi tizimini yaratishdir. Aynan shuning uchun ham ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bozor infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlarini ham qamraydi. Ijtimoiy tovar ishlab chiqarishga moslashgan har qanday jamiyat iqtisodiy o‘sinh va aholi farovonligini ta’minlash maqsadida taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti

yo‘nalishini tanlar ekan, uning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi infratuzilma tizimini yaratishi hayotiy zaruratdir. Chunki bozor iqtisodiyoti amal qilishi uchun uning infratuzilmasi yo‘nalish vazifalariga ko‘ra guruhlangan holda o‘zaro uzviy va bog‘lanishda harkatlanishi lozim, bu borada ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi aholining farovonlik darajasini oshirishning eng muhim iqtisodiy vositasi hisoblanadi.

Mamlakatning iqtisodiyoti rivojlanib borgan sari barqaror iqtisodiy o‘shish tendentsiyalari jihatlari va ijtimoiy infratuzilmani sifatini yaxshilash eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy strategik vazifalar qatoriga kiradi. Iqtisodiy islohotlar mamlakat aholisi turmush kechirishining yangi shartsharoitlari, jamiyatning turli ijtimoiy guruhlarining munosib turmush kechirishlarini ta‘minlash, turmush kechirish standartlarini ishlab chiqish, kambag‘allikni qisqartirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish kabi masalalarga alohida e‘tibor talab qiladi.

Munosib turmush darajasining sifatini yaxshilash, uning tarkibiy komponentlarini tadqiq etish orqali jamiyatning turli ijtimoiy guruhlarining turmush kechirish shartsharoitlariga, ijtimoiy holatiga va bozor iqtisodiyotining salbiy ta‘sirini kamaytirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Bu borada alohida qayd etish lozimki, aholi turmush darajasining pasayib ketishi kambag‘allikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida yuzaga chiqadi. Kambag‘allik darajasi mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarida va aholining turmush tarzida ifodalanib, ijtimoiy masala sifatida deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda namoyon bo‘ladi. aholining turmush darajasini yanada yaxshilash va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kambag‘allikni qisqartirishning to‘g‘ri va eng samarali usuli iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan to‘liq ish bilan band bo‘lishlikni ta‘minlash, qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganidek “Kambag‘allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o‘qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak”.

Mamlakatimizda kambag‘allik darajasi umumdavlat miqyosdagi ishlab chiqarish imkoniyatlarida va aholining turmush tarzida ifodalanib, ijtimoiy masala sifatida deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda namoyon bo‘ladi. Kambag‘allik darajasi mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarida va aholining turmush tarzida ifodalanib, ijtimoiy masala sifatida deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda namoyon bo‘ladi. Kambag‘allik mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda mehnat bozorida turg‘un raqobatsizlik holatini keltirib chiqaradi, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o‘zaro muvozanatini buzadi, omonatlar hajmini qisqartiradi hamda aholi xarid qobiliyatining pasayishi evaziga bozor umumiy talabini kamaytiradi.

Mahalliy olimlarning ko‘rsatib berishicha, “O‘zbekiston – aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘rtacha daromadga ega mamlakatlaridan qatoridan joy oladi (Yiliga kishi boshiga o‘rtacha 1533 AQSh dollari). Daromadning o‘rtacha darajasi ikki guruhga bo‘linadi. Daromadi o‘rtacha darajadan past mamlakatlar – kishi boshiga yiliga 1036-4085 dollar va daromadi o‘rtacha darajadan yuqori mamlakatlar – kishi boshiga yiliga 4086-12615 dollar. Birinchi guruhdagi mamlakatlar uchun mezonlar qabul qilingan, bu mezonlar bo‘yicha kuniga kishi boshiga 3,2 dollar kambag‘allik chizig‘ining o‘rtacha ko‘rsatkichini anglatadi. Milliy daromadi o‘rtachadan balandroq mamlakatlar uchun kuniga kishi boshiga 5,5 dollar kambag‘allik chizig‘ining o‘rtacha ko‘rsatkichi deb qabul qilingan”.[10]

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 400 mingdan ortiq oila turmush sharoitlari yaxshilanishiga muhtoj. O‘zbekiston sharoitida ham rivojlangan mamlakatlardek kambag‘allikni qisqartirishga kompleks yondashuv eng maqbul echimdir. O‘zbekistonda oxirgi uch yil mobaynida kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga real jami daromad 43,9 foizga, o‘rtacha hisoblangan nominal oylik ish haqi 79,7 foizga oshdi.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha tirikchilik vositalaridan mahrumlik, tengsizlik, madaniy, ekspluatatsiya ko‘rinishidagi hamda tarkibiy kambag‘allikka qarshi kurashish borasida kishilarning iqtisodiy tafakkuri va iqtisodiy tarbiyasini o‘zgartirishga erishish lozim. Barqaror iqtisodiy o‘sish tendentsiyalari ijtimoiy infratuzilma sohalarini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda kishilarning turmush darajasiga ham ta’sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Chunki bu rivojlanish ko‘p qirrali munosbatalarni taqozo etib, ehtiyojlar doirasining kengayib,

xilma-xil bo‘lib borishiga asos bo‘ladi, shu orqali esa iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotdagi shunday sifatli ijobiy o‘zgarishlarni nazarda tutadiki, ular aynan ijtimoiy infratuzilmani tezlashtirishga yordam beradi va barqaror iqtisodiy o‘sinh ta‘minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi omillarni tadqiq qilishni taqazo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi farmoni. Lex.uz.
2. OECD (2020), Poverty gap (indicator). DOI: 10.1787/349eb41b-en. Accessed on 23 April 2020.
3. Rauhut D. Adam Smith—a champion for the poor! //Poverty in the History of Economic Thought. – Routledge, 2020. – S. 29-43.
4. Samuelson P. A. Paul Samuelson on the history of economic analysis: Selected essays. – Cambridge University Press, 2015.
5. Vahobov, A. V., and A. S. Jo‘rayev. "Soliqlar va soliqqa tortish." Darslik-T.: Sharq 448 (2009).
6. O‘lmasov A., Vaxobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik.T.: "Iqtisod-Moliya", 2014-yil, 135-136 B.
7. Nabixujayev A., Sherov Yu., Sultonov P. Makroiqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlari va ularning O‘zbekistondagi dinamikasi. // Iqtisod va Moliya. №2 , 135 b.
8. Shodiyev T.Sh. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, intellektuallashtirish va diversifikatsiyalash asosida iqtisodiy o‘sinh sifatini oshirish "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali.T.: 2011-yil № 1- sentyabr.-3 b.
9. B. Valiyev "Iqtisodiy o‘sinh nazariyasining konseptual yondashuvlari". BiznesEkspert, 2014-yil № 1-son, 18 b.
10. Mustafaqulov Sh. Murodullayev N. va boshqalar.O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. 80 b №1, yanvar-fevral, 2020 yil. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
11. Abduvoxidov A., Kamilova S. Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 12-21.